

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

KADIROV SAN'AT YULDASHEVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Kadirov San'at Yuldashevich. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klasterlar samaradorligini oshirish (Xorazm viloyati misolida).....	3
Кадиров Санъат Юлдашевич. Повышение эффективности кластеров в развитии экономики региона (на примере Хорезмской области).....	29
Kadirov San'at Yuldashevich. Increasing the effectiveness of clusters in developing the regional economy (on the example of Khorezm region).....	57
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

Kadirov San'at Yuldashevich

**MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 –Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5181 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islamutdinov Vadim Faruurovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentalar:

Muxitdinov Xudayar Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Babajanov Javohir Fayzulla o'g'li
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish usuli bo‘lib klasterlarni tashkil etish hisoblanadi. Uning tarkibida klasterlashtirish obyektlar imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan namoyon bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy o‘shishning eng samarali shakli hisoblangan klasterlarni shakllantirish va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlashga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, jahon bo‘ylab 2019-yildan 2023-yilgacha neft va gaz tadqiqotchilari va ishlab chiqaruvchilari eng yuqori daromadni qayd etib, 5,3 trillion AQSh dollarga yetdi¹. Bu esa klasterlarni tashkil etishning imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu orqali mintaqada klasterlarni rivojlanish samaradorligini oshirish bevosita mintaqqa aholisi turmush sharoitlarini yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlari bilan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini integratsiyalash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini oshirishda dolzarb masala hisoblanadi.

Jahonda klasterlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ilmiy-tadqiqot va oliy ta‘lim muassasalari samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini integratsiyasini ta‘minlashda davlat xususiy sherikchilik mexanizmlarini takomillashtirish, sohani turli yondashuvlar asosida raqamlashtirish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy muammolarni yechishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish va turli miqdoriy usullar asosida natijaviy ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, mis sanoati klasterini tashkil etish orqali mis va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2 baravar ko‘paytirish hamda 8 mlrd. dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun asos yaratish, avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga, eksport hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va mahalliyashtirish darajasini oshirish, Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona klaster usulida tashkil etish² belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda klasterlar faoliyatini samarali tashkil etish, klasterlar samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish, klasterlar faoliyatini iqtisodiy-statistik tahlil qilish va klasterlar faoliyati iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellar asosida prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda “Qishloq

¹ <https://www.statista.com/statistics/264730/the-top-20-most-profitable-branches-of-industry-worldwide/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-205-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 53-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijda iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish va uning tarkibida klasterlarni rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalar Aboriginal and Torres Strait Islander, M.Porter, M.X.Meskon, M.Alber, F.Xedouri³, MDH olimlaridan R.Huseynov, N.Aliyeva, V.Bezpalov, D.Syromyatnikov, K.A.Vorotnikov, D.N.Lapayev, K.G.Gedz, O.A.Anichkina⁴ va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyoti va klasterlarni taraqqiy qildirish bilan bog‘liq jihatlar Z.A.Xakimov, F.Sh.Mardonov, A.A.Abduvaliyev, I.S.Ochilov, B.K.Abdumuminov va boshqalar⁵ ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Ammo, ushbu tadqiqotlarda Xorazm viloyati mintaqasida klasterlarni rivojlantirish bilan bog‘liq izlanishlarning yetarlicha amalga oshirilmaganligi dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

³ Aboriginal and Torres Strait Islander. Principles of enterprise clustering. SUMMARY BOOKLET. - p. 5., Clusters in the post-communist context. // Business clusters: promoting enterprise in central and eastern europe, OECD, 2005. - p. 28. ISBN- 92-64-00710-5., Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран [Текст] / М. Портер; под ред. В.Д. Щетинина. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с., Мескон М.Х., Альбер М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: пер. с англ. - М.: Дело ЛТД, 1995.,

⁴ Huseynov R., Aliyeva N., Bezpalov V., Syromyatnikov D. Cluster analysis as a tool for improving the performance of agricultural enterprises in the agro-industrial sector. // Environment, Development and Sustainability, Springer, 2024, Vol. 26(2). - pp. 4119-4132., Воротников К.А. Кластеризация как инструмент повышения конкурентоспособности предприятий. // Финансовая аналитика проблемы и решения, 7 (19), 2009. - с. 43., Лапаев Д.Н. Метод многопроекционной кластеризации экономических систем. // Экономика, предпринимательство и право. – 2024. – Т. 14, № 9. – С. 4813-4826. – DOI 10.18334/epp.14.9.121596, Гедз К.Г., Аничкина О.А. Инновационная политика и формы её поддержки с ориентацией на кластеры. // Проблемы современной экономики (II): материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Челябинск, октябрь 2012 г.). – Челябинск: Два комсомольца, 2012. – vi, - с. 25.

⁵ Хакимов З.А. (2022). Саноат кластерлари самарадорлигини таъминловчи омиллар тизими. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 1, yanvar-fevral (№00057). – 216 b., Mardonov F.Sh. Oliy ta’limni rivojlantirishda klasterning o‘rni. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. - 714 b., Abduvaliyev A.A. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili. // Iqtisod va moliya, 2017, 7. - 28 b., Ochilov I.S., Abdumuminov B.K. Klaster tizimida innovatsion samaradorlik masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 yil. – 1 b.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati mintaqasida klasterlar samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning obyektiv zaruriyati va uslubiy asoslarini chuqur o'rganish;

mintaqada klasterlarni shakllantirish tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;

mintaqada klasterlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish xorij tajribasini o'rganish;

O'zbekistonda klasterlarni rivojlantirish holati tahlilini amalga oshirish;

mintaqada klasterlar faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini taklif etish;

mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klasterlar samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini baholash;

Xorazm viloyatida klasterlarning tarmoq va hududiy tuzilmasini taklif etish;

Xorazm viloyatida klasterlarni zamonaviy modellarini qo'llash imkoniyatlarini aniqlashtirish;

mintaqada klasterlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Xorazm viloyati mintaqasida klasterlar samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, anketa-so'rovi, tizimli tahlil, klaster tahlil, qiyosiy tahlil, monografik yondashuv, abstraktlashtirish, modellashtirish va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda klasterlarni rivojlantirishning ko'p bosqichli yondashuvlari taklif etilgan;

mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar salohiyatini yuqori (86-100 %), o'rta (71-85 %) va quyi (55-70 %) darajalardagi baholash yondashuvlari taklif etilgan;

mintaqada klasterlarni samarali innovatsion va istiqbolli rivojlantirishda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish klasterlari tuzilmasi modelidan foydalanish tizimi takomillashtirilgan;

Xorazm viloyatida klasterlar iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik baholash orqali ularning 2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mintaqada korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda klasterlarni rivojlantirish bo'yicha uslubiy yo'nalishlar belgilab berilgan;

mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar salohiyatini baholash usullari taklif etilgan;

innovatsion yondashuvlar asosida mintaqada iqtisodiy samaradorligini oshirishning klasterlar assotsiatsiyasini tashkil etish shart-sharoitlari va omillari takomillashtirilgan;

Xorazm viloyatida klasterlar iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik baholash imkoninatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Paxta sanoat uyushmasi, Xorazm viloyati hokimligi ma'lumotlari va internet manbalari, hisobotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan Xorazm viloyati mintaqasida klasterlarni rivojlantirishning nazariy bilimlarni boyitishda, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni yaratishda, fanning turli sohalarini integratsiyasiga va empirik ma'lumotlar bazasini yaratishda hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Xorazm viloyati mintaqasida klasterlar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishda va oliy o'quv yurtlarida "Industrial iqtisodiyot", Innovatsion iqtisodiyot", "Korxonalar iqtisodiyoti", "ASK iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqada klasterlar samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqada korxonalar faoliyatini samarali tashkil etishda klasterlarni rivojlantirishning ko'p bosqichli yondashuvlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 7-2048-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi mintaqada klasterlar iqtisodiy mexanizmini uzluksiz rivojlantirish imkoniyatini yaratgan;

mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar salohiyatini yuqori (86-100%), o'rta (71-85%) va quyi (55-70%) darajalardagi baholash yondashuvlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 7-2048-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilinishi mintaqada klasterlar iqtisodiy faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini o'rtacha 2-4 foizga oshirish imkonini bergan;

mintaqada klasterlarni samarali innovatsion va istiqbolli rivojlantirishda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish klasterlari tuzilmasi modelidan foydalanish tizimi bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 7-2048-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni joriy qilish Xorazm viloyati shahar va tumanlarida klasterlar salohiyatlarini yuqori, o'rta va quyi darajalarda baholash imkonini bergan;

Xorazm viloyatida klasterlar iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik baholash orqali ishlab chiqilgan 2027-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari prognoz qiymatlari taklifi Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Xorazm

viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 7-2048-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif asosida mintaqada klasterlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini 1,02 baravarga oshirish orqali kelajakda korxonalar iqtisodiy rentabelligini oshirishga qaratilgan optimal qarorlarni ishlab chiqishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 6 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi umumiy hajmi 152 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning "**Mintaqada klasterlar samaradorligini oshirishning metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobda milliy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirishning obyektiv zaruriyati va uslubiy asoslari, mintaqada klasterlarni shakllantirish tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillar hamda mintaqada klasterlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish xorij tajribasi o'rganilgan.

Hozirgi kunda iqtisodiy jadal rivojlanishini ta'minlash va samaradorlikni oshirish uchun klasterlar muhim o'rinni egallaydi. Ushbu tushuncha umumiy maqsadli qismlar asosida shakllantirilgan mavjud tizimlar shaklida qo'llaniladi. Chunki, klaster - bir-biriga bog'langan unsurlar guruhi bo'lib, faqat tizim vazifasini bajaradi. Klaster tizimlariga ba'zi bir faoliyatlarda yuqori tayyorgarlik, yuqori tezlik, yiriklashtirish, resurslarni almashish va xizmat ko'rsatish qulayligi kabi talablar qo'yiladi.


Klasterlar bir tomondan ma'lum chegara va samaradorlikka ega bo'lgan bozorlar va boshqa tomondan esa iyerarxiya yoki vertikal integratsiya o'rtasida joylashgan hududiy tashkiliy shaklning yangi turini ifodalaydi. Shunday qilib, klaster qiymat zanjirini tashkil qilishning muqobil usuli bo'lib hisoblanadi.

Mazkur tushuncha obyektlar namunasi haqidagi ma'lumotlarni to'playdigan va keyinchalik esa obyektlarni nisbatan bir xil guruhlarga yoki klasterlarga joylashtiradigan ko'p o'lchovli tizim bo'lib hisoblanadi. Hududda shakllangan klaster tuzilmalari hududning samaradorligiga va iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan muhim element hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish,

ta'lim, ilm-fan va boshqa sohalardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hududiy jihatdan yaqinligi va o'zaro bog'liqligiga asoslanadi⁶.

Iqtisodiy tarmoqlarda shakllanadigan hududiy klaster hududning iqtisodiy rivojlanishiga va samaradorlikni oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va investitsiyalarni jalb qilib, jahon va milliy iqtisodiyotlarni tabaqalashtirishning yangi tamoyiliga aylanadi. Shu bilan birga, bu faqat iqtisodiyot tarmoqlari kesishgan joyda yangi ixtisoslashgan tarmoqlarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Klasterlarga birlashishga qaror qilgan institutlarning rejalashtirilgan natijalari, darajasi, mezonlari va samaradorlikni belgilaydigan rivojlanish dasturi bo'lishi kerak⁷.

Fikrimizcha, klaster siyosatining davlat maqsadlarini rivojlanishida bevosita ularni klaster siyosatini amalga oshirishda muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni bajaradigan tuzilmalarga keng jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda hududlarning klaster siyosatini shakllantirish, amalga oshirish va samaradorlikni oshirish uchun yetarli mintaqaviy rivojlanish zarur. Shu orqali klaster tushunchasi quyidagi tuzilmaga ega bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Klaster tushunchasi mohiyati, tarkibi⁸

Ushbu 1-rasmga ko'ra, klaster tushunchasi klaster texnologiyalarini ijtimoiy-iqtisodiy dinamika muammolarini hal qilishga qaratiladi. Bu esa muammolar chuqur va tizimli ko'rinishda bo'ladi. Ushbu jihatlar tadqiqot faoliyati ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish uchun klasterlashdan foydalanish imkoniyatini ko'rsatdi. Amaliy va uslubiy jihatdan bu jarayonlar sust qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda klasterlashtirish mexanizmlarini va samaradorlikni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bugungi kunda klasterlar iqtisodiyotni zamonaviy usulda keng taraqqiy qildirishning muhim yo'nalishi bo'lib qaraladi. Ushbu tushuncha mahsulot va xizmatlarni yaratish uchun birgalikda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar guruhlari

⁶ Мочальников В.Н., Анохина М.Е., Коростелев Д.Г. Отраслевые особенности кластеризации экономики. // Вопросы экономики и права, 2014, №7. - с. 74.

⁷ Mardonov F.Sh. Oliy ta'limni rivojlantirishda klasterning o'rni. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. - 714 b.

⁸ Muallif ishlanmasi.

hisoblanib, u ko'pincha qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Klasterlarga jalb qilingan ishtirokchilar ma'lum bir geografik mintaqada joylashadi. Ushbu klasterlar hudud bilan bog'liq xususiyatlarga asoslanadi yoki uning asosini mutaxassisliklar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tuzilma tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, klaster korxonalar, boshqa qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va barcha maqsadli mintaqa yoki sektordagi manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu chora-tadbirlar bevosita klasterlarni tashkil etish tamoyillaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Klasterlar faoliyatida eng muhim bo'lib samaradorlikka ega klasterlarni tashkil etish hisoblanadi. Chunki, klasterlarni tashkil etish o'ziga xos o'lchamlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shundan kelib chiqib, ba'zi tadqiqotlarda klasterlarning turli shakl va o'lchamlari tahlil qilinadi. Xususan, klasterlar mintaqa, sektor, resurslar va klaster ishtirokchilari ehtiyojlariga qarab barcha shakl va o'lchamlarda bo'ladi⁹.

Klasterlarni tashkil etishda ulardan oldin ko'plab klasterga asoslangan bosh korxonalar va barcha kiruvchi korxonalarining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish algoritmini ishlab chiqish, maqsadlar daraxtini ishlab chiqish hamda xom ashyo va mahsulotlar parametrlariga qo'yiladigan tamoyillarni aniqlash asosida tashkiliy va tahliliy ishlar olib boriladi.


Darhaqiqat, klasterlarni samarali tashkil etish tamoyillariga asosan, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlar mavjud bo'ladi. Unga asosan, klasterlarni rivojlantirish muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq. Aniq maqsadlar, kuchli klaster boshqaruvi, korxonalar o'rtasidagi hamkorlik, innovatsion muhit, malakali kadrlar, qulay infratuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik klasterning muvaffaqiyatli rivojlanishi va samaradorlikni oshirish uchun zarur shartlar hisoblanadi.

Klasterlarni tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan turli omillar mavjud bo'ladi. Chunki, bu soha jahon dunyo bo'ylab bir tekis taqsimlanmagan va biznesni yuritishda nisbatan qulaylik bilan daromadni ko'paytiradigan turli omillar tufayli ma'lum sohalarda to'plangan. Bu energiya, suv va integratsiyalashgan transport tizimi kabi asosiy infratuzilmalarni talab qiladi hamda ular tanlangan hududlarda butun mamlakatga qaraganda kam vaqt ichida ta'minlanishi mumkin¹⁰. Shunga asosan, korxonalar ishlab chiqarish qiymati boshqa sohalarda nisbatan kamroq bo'ladi. Bu esa iqtisodiy sohalarda mahsulot yaratish istagini shakllantiradi. Bu holatda klaster eksport va mamlakat ichidagi ichki talab uchun zarur bo'ladi.

Ana shulardan kelib chiqib, klasterlarni rivojlantirish va samaradorligi oshirishga quyidagi omillar ta'sir qiladi (2-rasm).

⁹ Aboriginal and Torres Strait Islander. Principles of enterprise clustering. SUMMARY BOOKLET. - p. 5.

¹⁰ <https://www.jagranjosh.com/articles/industrial-cluster-location-explained-for-upsc-ias-main-exam-gs-paper-i-1444989925-1>



2-rasm. Klasterlarni samarali rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar¹¹

Ushbu 2-rasmga asosan, klasterlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'ladi. Shu bois, rivojlanayotgan klasterlar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy modeliga aylanadi. Chunki, klasterlar samaradorlikni oshirish orqali raqobatbardoshlik imkoniyatlari kuchaytiriladi. Shulardan kelib chiqib, korxonalar faoliyatini tashkil etish uchun ushbu keltirilgan klasterlarni rivojlantirishning quyidagi ko'p bosqichli nazariy-metodologik yondashuvlari zarur (1-jadval).

1-jadval

Mintaqada korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish uchun klasterlarni rivojlantirish yondashuvlari¹²

Yondashuvlar tasnifi	Yondashuvlar mazmuni	Qo'llash imkoniyati
ijtimoiy-iqtisodiy	Aholi turmush farovonligini oshirish va foyda olish	Doimiy
tashkiliy-ma'muriy	Klaster faoliyatini samarali boshqarishning qarorlarini ishlab chiqish	Vaziyatga qarab
psixologik	Klaster ishtirokchilarining ijobiy xislatlarini yuzaga chiqarish	Vaziyatga qarab
institutsi-onal	Korxonalar tuzilishini isloh qilish va muvofiqlashtirish	Doimiy

Natijada, mintaqada klasterlar iqtisodiy mexanizmini uzluksiz rivojlantirish va samaradorligi oshirish imkoni ta'minlanadi.

Mintaqaviy klasterlar bilan muvofiq ravishda davlat hududiy rivojlanish strategiyasidagi xorijiy tajribalarga asosan, klasterlar davlatlar va undagi mintaqalar iqtisodiyoti o'sishiga ta'sir qiladi. Bu boradagi olib borilgan tadqiqotlar hududiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda hududiy klasterlarni qo'llab-quvvatlashga

¹¹ Muallif ishlanmasi.

¹² Muallif ishlanmasi.

asoslanadi. Natijada, klaster iqtisodiyot tarmoqlarining muammolari va kuchli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Shu orqali klasterning shakllanishi kichik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga ham olib keladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda klasterlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobda O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirish holati tahlili, mintaqada klasterlar faoliyatini tartibga solish mexanizmlari hamda mintaqqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klasterlar samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirish tendensiyalari, avvalo, uning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishi ustuvor va bilim talab qiladigan tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirishni ta‘minlaydi. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishga so‘nggi yillarda alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ya‘ni, paxtachilik, to‘qimachilik, meva-sabzavotchilik, turizm va boshqa sohalarda klasterlar yaratilmoqda. Ushbu klasterlar mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Klasterlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, qulay shart-sharoitlar yaratish va infratuzilmani takomillashtirish zarur. Shuningdek, Prezidentning tegishli qarorlari va farmonlari bilan klasterlarni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Hozirgi kunda paxtachilik, to‘qimachilik, meva-sabzavotchilik, turizm va boshqa sohalarda klasterlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda klasterlar quyidagi yo‘nalishlarda taraqqiy qilmoqda (3-rasm).

<i>Qishloq xo‘jaligidagi klasterlar:</i>	<i>Sanoatdagi klasterlar:</i>	<i>Xizmat ko‘rsatish sohasidagi klasterlar:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Paxta-to‘qimachilik klasterlari: O‘zbekistonda paxta yetishtirish, qayta ishlash va to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha klasterlar keng joriy qilingan. • Meva-sabzavotchilik klasterlari: Meva-sabzavot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bilan shug‘ullanuvchi klasterlar ham rivojlanmoqda. • G‘allachilik klasterlari: G‘alla yetishtirish va qayta ishlash klasterlari ham mavjud. 	<ul style="list-style-type: none"> • Avtomobilsozlik klasterlari: Avtomobil ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish sohasida klasterlar faoliyat yuritmoqda. • Energetika klasterlari: Energiyani ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida klasterlar yaratishga e‘tibor qaratilmoqda. • Kimyo sanoati klasterlari: Kimyo sanoatida klasterlarni rivojlantirishga harakat qilinmoqda. 	<ul style="list-style-type: none"> • Turizm klasterlari: Turizm sohasida sayyohlik infratuzilmasini yaxshilash va turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan klasterlar rivojlanmoqda.

3-rasm. O‘zbekistonda klasterlarning asosiy faoliyat sohalari¹³

Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda klasterlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishning hozirgi holati quyidagi yo‘nalishlar bilan belgilanadi:

1) Klasterlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari va farmonlari bilan klasterlarni

¹³ Muallif ishlanmasi.

rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini tartibga solish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

2) Faoliyat yuritayotgan klasterlar: O‘zbekistonda avtomobilsozlik, to‘qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va boshqa sohalarda faoliyat yuritayotgan bir qator klasterlar mavjud. Misol uchun, “UzAuto Motors” avtomobil klasteri, to‘qimachilik klasterlari (Buxoro, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida) va boshqalar.

3) Klasterlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari: Klaster ishtirokchilariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kreditlar va boshqa preferensiyalar taqdim etiladi. Shuningdek, infratuzilmani yaxshilash, kadrlar tayyorlash va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

4) Xalqaro hamkorlik: Klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or amaliyotlarni joriy etish maqsadida xorijiy tashkilotlar va ekspertlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari assotsiatsiyasi faoliyat ko‘rsatadi. Paxta-to‘qimachilik klasterlari - paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab, tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan butun qiymat zanjirini qamrab oluvchi, o‘zaro bog‘langan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar majmuidir. Mamlakatimizda Toshkent shahridan boshqa barcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyat ko‘rsatadi. Chunki, mamlakatimizda klasterlarni asosiy ulushi paxta-to‘qimachilik klasterlariga to‘g‘ri keladi. Ular, asosan, mamlakatimiz mintaqalarida soni va ekin maydonlari jihatidan bir-biridan farq qiladi (2-jadval).

2-jadval

2023-yilda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatgan paxta-to‘qimachilik klasterlar soni va ularning ekin maydonlari haqida ma’lumot¹⁴

T/r	Hududlar nomi	Klasterlar soni	Ekin maydoni, gektar
	O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha	147	1012587
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14	86800
2	Andijon viloyati	15	71331
3	Buxoro viloyati	11	96370
4	Jizzax viloyati	7	82100
5	Qashqadaryo viloyati	19	133050
6	Navoiy viloyati	4	28155
7	Namangan viloyati	8	61025
8	Samarqand viloyati	12	73247
9	Surxondaryo viloyati	12	72270
10	Sirdaryo viloyati	9	77500
11	Toshkent viloyati	10	70161
12	Farg‘ona viloyati	13	77821
13	Xorazm viloyati	13	82757

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Ushbu 2-jadvalga asosan, respublikamiz bo'yicha jami 147 ta paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat ko'rsatib, ularning ekin maydoni 1012587 gektarni tashkil etgan. Ammo, faqat Toshkent shahri hududida paxta-to'qimachilik klasterlari mavjud emas. Qolgan hududlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasida 14 tani (86800 ga.ni), Andijon viloyatida 15 tani (71331 ga.ni), Buxoro viloyatida 11 tani (96370 ga.ni), Jizzax viloyatida 7 tani (82100 ga.ni), Qashqadaryo viloyatida 19 tani 133050 ga.ni), Navoiy viloyatida 4 tani (28155 ga.ni), Namangan viloyatida 8 tani (61025 ga.ni), Samarqand viloyatida 12 tani (73247 ga.ni), Surxondaryo viloyatida 12 tani (72270 ga.ni), Sirdaryo viloyatida 9 tani (77500 ga.ni), Toshkent viloyatida 10 tani (70161 ga.ni), Farg'ona viloyatida 13 tani (77821 ga.ni) va Xorazm viloyatida 13 tani (82757 ga.ni) tashkil etgan.

Klasterlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu klaster samaradorlik, innovatsiya va bandlikni oshirish orqali mintaqaviy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Davlat siyosati ushbu klasterlar muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Ular infratuzilma, moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va bozorga kirish uchun asos yaratadi¹⁵. Bu esa davlat siyosatining klasterlarni rivojlantirishdagi roliga asoslanadi. Ya'ni, ushbu holatda tegishli ma'lumotlardan foydalanib, muvaffaqiyatli siyosat aralashuvlari tahlil qilinadi.

Asosan, klasterlarni tashkil etish eng muhim masala sifatida hisoblanadi. Iqtisodiyotning turli sohalarida klasterlarni amalga oshirish uchun klasterlashtirish yoki klasterizatsiyadir. Chunki, klasterlarni rivojlantirish va samaradorlikni oshirish - hududiy iqtisodiyotni barqarorlashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi texnologiyalarni joriy etishda muhim strategik yondashuvdir.

Tahlillar natijasida klasterlar faoliyatini baholash uchun ajralmas ko'rsatkichga kiritish uchun potensial mos keladigan ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxati paydo bo'ladi. Jami indikatorni shakllantirish uchun mijozlarning diqqat markazida bo'lish, texnologik innovatsiyalarga e'tibor qaratish, klasterning hajmi va raqobatbardoshligi, klaster faoliyatiga jami investitsiyalar, malakali kadrlar va xodimlarni o'qitish kabi ishlash omillariga mos keladigan 5 ta asosiy ko'rsatkich tanlanadi. Shuningdek, klasterning rivojlanish va samaradorlikni oshirish strategiyasiga mos keladigan uchta ko'rsatkich klaster va klasterlararo hamkorlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib hisobalanadi (3-jadval).

3-jadval

Klasterlarda samaradorlikning asosiy va indikativ ko'rsatkichlari¹⁶

Innovatsion faoliyat samaradorligi yo'nalishlari	Ko'rsatkichlar tasnifi	Hisoblash formulasi
Asosiy ko'rsatkichlar		
Mijozlarga e'tibor qaratish	Hisobot yilida joriy etilgan yangi toifadagi mahsulotlar yoki xizmatlar soni, birlikda	$KPI1 = \sum HPt + \sum Yt$

¹⁵ <https://localandglobaleco.com/2024/10/25/role-of-government-policies-in-industrial-cluster-development/>

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

		bu yerda, HP - yangi yilda joriy qilingan yangi turdagi mahsulotlar soni; Y - hisobot yilida yangi xizmatlar soni
Texnologik innovatsiyalarga e'tibor qaratish	Hisobot davri va oldingi ikki yil davomida olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha patentlar va boshqa nomoddiy aktivlar soni, birlikda	$KPI2 = \sum npt + \sum mpt + \sum kpt$ bu yerda, n,m,k - ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra patentlar va boshqa nomoddiy aktivlar (p) soni mahsulotlar soni
Kompaniya hajmi va raqobatbardoshligi	Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalardan foydalanishning iqtisodiy samarasi, mln.so'mda	$KPI3 = \sum \Delta P + \sum \Delta C$ bu yerda, ΔP - ishlab chiqarish xarajatlarini tejash; ΔC - yangi tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan foyda
Malakali kadrlar tayyorlash	Innovatsiyalar sohasida o'qitilgan xodimlar ulushi, % da	$KPI4 = \frac{Ps_{fact}}{\Pi} * 100 \%$ bu yerda, Ps - joriy yilda innovatsion faoliyat sohasida o'qitilgan xodimlarning haqiqiy soni; Π - hisobot yilidagi xodimlarning o'rtacha soni
Kompaniya faoliyatiga investitsiya jalb qilish	Ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirish ulushi, % da	$KPI5 = \frac{Ks_{fact}}{R} * 100 \%$ bu yerda, Ks - hisobot yilida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning haqiqiy miqdori; R - hisobot yilidagi xizmatlar uchun kompaniyaning haqiqiy daromadlari
Indikativ ko'rsatkichlar		
Bosh direktorning asosiy roli	Innovatsion faoliyat natijalari tufayli tashkilotdagi yangi vakolatlar soni, birlikda	$KPI6 = \sum K$ bu yerda, Ks - yangi vakolatlar soni
Kompaniyalararo tashqi hamkorlik	Universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlarning ilmiy tadqiqot ishlanmalaridagi ulushi, % da	$KPI7 = \frac{HB_{s_{fact}}}{K_s}$ bu yerda, HB _{s_{fact}} – hisobot yilida universitetlar tomonidan ilmiy baza va olib borilayotgan tadqiqotlarni moliyalashtirishning haqiqiy miqdori; K _s - hisobot yilida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning haqiqiy miqdori
Kompaniyalararo ichki hamkorlik	Hisobot yilida sho'ba korxonalaridan kelgan takliflar soni, birlikda	$KPI8 = \sum \Delta T + \sum \Delta TP$ bu yerda, ΔT - bo'limlar tomonidan yaratilgan yangi texnologiyalar miqdori; ΔTP - bo'limlar tomonidan ishlab chiqilgan texnologik yechimlar miqdori

Ushbu 3-jadvalga asosan, klasterning samaradorlik strategiyasi va klasterlararo hamkorlik darajasini aks ettiruvchi uchta indikativ ko'rsatkich aks ettiradi. Ular tarkibiga tashqi va ichki ko'rsatkichlar kiradi. Bu borada innovatsion faoliyatning integral ko'rsatkichini hisoblash algoritmi taklif qilinadi. Indikativ ko'rsatkichlar esa klasterning innovatsion dasturi va siyosati hamda klasterlarning strategik rivojlanish ustuvorliklariga mos kelishi kerak.

Klaster faoliyatining dinamikasini kuzatish uchun ko'rsatkichlarni muntazam ravishda baholab borish zarur. Ushbu baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlar emas, sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim.

Shunga ko'ra, O'zbekiston mintaqalarida klasterlar samaradorligini baholash tadqiqotlarga asoslanadi. Bu borada klasterlarni baholash metodologiyasi ham vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston mintaqalarida klaster samaradorligini baholash natijalari¹⁷

Hudud	Klaster nomi (tarmog'i)	Yaratilgan ish o'rinlari soni	Eksport hajmi (ming AQSh dollari)	Investitsiyalar hajmi (ming AQSh dollari)	Innovatsion loyihalar soni	Samaradorlik darajasi (past, o'rta, yuqori)
Toshkent shahri	To'qimachilik klasteri "Toshkent Tekstil"	250	750	1500	5	Yuqori
Samarqand viloyati	Meva-sabzavot klasteri "Samarqand Bog'i"	180	450	800	3	O'rta
Farg'ona viloyati	Avtomobilsozlik klasteri "Farg'ona Avto"	320	1000	2500	7	Yuqori
Andijon viloyati	Qurilish materiallari klasteri "Andijon Qurilish"	120	200	500	2	O'rta
Buxoro viloyati	Turizm klasteri "Buxoro Ziyorati"	80	150	300	1	Past

Sifat bahosi ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi va tegishli shkala bo'yicha baholanadi. Samaradorlikni baholashda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birgalikda hisobga olish muhim. Ushbu jadvalni to'ldirishda aniq va ishonchli ma'lumotlardan foydalanish lozim.

Yuqorida keltirilgan formulalar klasterlar samaradorligini baholashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Baholash natijalari klasterlarni rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda va faoliyatni takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin.

Olib borilgan tahlillarga asosan, mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar salohiyatini yuqori (86-100 %), o'rta (71-85 %) va quyi (55-70 %) darajalardagi baholash uslublari va yondashuvlari taklif etildi (5-jadval).

5-jadval

Mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlar samaradorligini baholash natijalari¹⁸

№	Samaradorlik shakllari	Darajasi	Klasterlar samaradorlik imkoniyatlari
1	yuqori	86-100 %	Klaster tuzilmalari resurslardan foydalanishga asoslanish, va bilimlarni kengaytirish, texnologik mahsulotlarni yaratish

¹⁷ Muallif ishlanmasi

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

2	o'rta	71-85 %	Mavjud texnologiyalarni yangilash hamda yangi texnik resurslar majmuasiga kirish va yuqori sifatli kadrlarni jalb qilish
3	quyi	55-70 %	Yuqori texnologiyali mahsulotlarni bozorga chiqarish va ularni yakuniy iste'molchiga yetkazish

Natijada, mintaqa sharoitida klasterlarga oid iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq samaradorligi ko'rsatkichlarini 2-4 foizga oshirish mumkin bo'ladi. Shularga asosan, korxonalarni klasterlashtirishni toifalash, ularning samaradorligini oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston tajribasida klasterlarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va mehnat unumdorligini oshirishga erishilmoqda.

Dissertatsiyaning "**Xorazm viloyatida klasterlar samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari**" deb nomlangan uchinchi bobda Xorazm viloyatida klasterlarning tarmoq va hududiy tuzilmasi, Xorazm viloyatida klasterlarni zamonaviy modellarini qo'llash imkoniyatlari hamda mintaqada klasterlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari aniqlangan.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida klasterlar faoliyati va samaradorligi so'nggi yillarda faollashib, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Viloyatda klasterlar qishloq xo'jaligi, sanoat va turizm sohalarida tashkil etilgan. Xorazm viloyatida klasterlarning tarmoq va hududiy tuzilmasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

1) Tarmoq tuzilmasi:

Xorazm viloyatida asosan quyidagi tarmoqlarda klasterlar faoliyat yuritadi:

- to'qimachilik sanoati klasterlari: Viloyatda paxta yetishtirish va to'qimachilik sanoati rivojlanganligi sababli, ushbu sohada bir nechta klasterlar tashkil etilgan. Ular paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

- qishloq xo'jaligi klasterlari: Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, poliz ekinlari (qovun, tarvuz) va mevalar yetishtirishga ixtisoslashgan. Shuning uchun, ushbu sohada ham klasterlar tashkil etilgan bo'lib, ular mahsulot yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotishni o'z ichiga oladi.

- turizm klasterlari: Xorazm viloyati o'zining tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan mashhur. Shuning uchun, turizm sohasida ham klasterlar faoliyat yuritadi. Ular turistik xizmatlarni ko'rsatish, mehmonxona biznesi, transport va boshqa sohalarni qamrab oladi.

- qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlari: Viloyatda qurilish sanoati ham rivojlanib borayotganligi sababli, mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtirgan klasterlar ham mavjud.

2) Hududiy tuzilmasi:

Xorazm viloyatida klasterlar asosan quyidagi hududlarda joylashgan bo'ladi:

- Urganch shahri: Viloyatning ma'muriy markazi bo'lgan Urganch shahrida to'qimachilik, turizm va xizmat ko'rsatish sohalariga oid klasterlar joylashadi.

- Xiva shahri: Turizm markazi bo'lgan Xiva shahrida turizm klasterlari faoliyat yuritadi.

- Bog‘ot tumani: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan Bog‘ot tumanida qishloq xo‘jaligi klasterlari joylashadi.

- Hazorasp tumani: Ushbu tumanda ham qishloq xo‘jaligi klasterlari faoliyat yuritadi.

- Shovot tumani: Shovot tumanida qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlari joylashadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida klasterlar samaradorligini oshirish quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:

- mahalliy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- investitsiyalarni jalb qilish;
- viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish.

Xorazm viloyatida klasterlar hududiy tuzilmasida paxta-to‘qimachilik klasterlari muhim o‘rin tutadi. Bu borada Xorazm viloyati klasterlar tarkibida bugungi kunda paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati yuqori ulushga ega hisoblanadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida 2022-2023-yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Urganch, Hazorasp, Tuproqqal‘a, Xonqa, Xiva, Shovot, Yangiariq va Yangibozor tumani hissasiga to‘g‘ri keladi (6-jadval).

6-jadval

Viloyatda 2022-2023-yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi¹⁹

№	Shahar-lar va tuman-lar nomi	Korxonalar nomi	Paxta maydoni (ga)		Yetishtirilgan xosil (tn)		Hosildorlik (y/ga)		Tola ishlab chiqarish (tn)	
			2022	2023	2022	2023	2022	2023	2022	2023
	Paxta to‘qimachilik klasterlari		82757,0	85324,8	294742,0	326045,0	35,7	38,2	98461,4	108246,9
1	Bog‘ot tumani	"KOBOTEX" MChJ	4307,0	4107,0	17031,0	17382,0	39,5	42,3	5705,4	5770,8
2	Bog‘ot tumani	"GREAT COTTON EXPORT" MChJ	2968,0	2834,6	9646,0	9886,0	32,5	34,9	3222,0	3282,2
3	Gurlan tumani	"GURLAN GLOBAL TEKS" MChJ	11400,0	10758,7	41932,0	47797,0	36,8	44,4	14005,0	15868,6
4	Qo‘shko‘pir tumani	"WBM QO‘SHKO‘PIR CLUSTER" MChJ	9600,0	10550,0	33442,0	37734,0	34,8	35,8	11170,0	12527,7
5	Urganch tumani	"URGENCh CLUSTER" MChJ	8800,0	9301,3	31279,0	28982,0	35,5	31,2	10447,0	9622,0
6	Xazorasp tumani	"HAZORASP-TEXTIL" MChJ	5500,0	6286,4	21730,0	23856,0	39,5	37,9	7258,0	7920,2
7	Tuproqqal‘a tumani	"TUPROQQAL‘A TEXTIL" MChJ	2682,0	3115,5	10106,0	11509,0	37,7	36,9	3375,0	3821,0
8	Xonqa tumani	XORAZM TEX MChJ	10900,0	10945,1	38352,0	47348,0	35,2	43,3	12810,0	15719,5

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

9	Xiva tumani	"KHIVA CLUSTER" MChJ	5000,0	5167,7	18694,0	21525,0	37,4	41,7	6244,0	7146,3
10	Shovot tumani	"TEXTILE FINANCE KHOREZM" MChJ	8100,0	8339,7	25289,0	23418,0	31,2	28,1	8447,0	7774,8
11	Yangiariq tumani	"YANGIARIQ TEX" MChJ	4700,0	4813,0	15147,0	18153,0	32,2	37,7	5059,0	6026,8
12	Yangibozor tumani	"YANGIBOZOR TEXTILE AGRO CLUSTER" MChJ	8800,0	9105,8	32094,0	38455,0	36,5	42,2	10719,0	12767,1

